



SURXONDARYO BEZAK ELEMENTLARINING RAMZIY MANOLARI.

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi

Xalilova Xanifa Xolmamat qizi

Termiz davlat universiteti

E-mail: sarvinozraximqulova1990@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18397631>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 28-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Gulband, dardig'azna boboxur, sxema, xapama

ABSTRACT

Ushbu maqolada surxondaryo taqinchoqlarini muammolari o'rganildi. Buyumlarga dekorativ elementlarni qo'llash uchun oddiy va yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan bezaklarning ipli asoslarini shakllantirish va shu asosda dekorativ bezak elementlarini ishlab chiqarish usuli yaratilgan.

Taqinchoqlarning qo'llanish usullari hamda to'qilish sxemasi o'rganib chiqildi. Surxondaryo ayollarining taqinchoqlari sxemasini ishlab chiqishda ularning to'qilishiga e'tibor qaratilgan.

Milliy ana'anaviy kiyimlar har bir xalqning moddiy ma'naviyatning ajralmas bir qismidir, chunki kiyimlar millatning milliy diniy e'tiqodi, urf-odatlar kabi jihatlari o'z aksini topgan. Voxa aholisining an'anaviy liboslari asrlar davomida shakllanib kelgan.

Kostyum – bu murakkab tashkiliy tuzilma bo'lib, bir qancha elementlardan, masalan konstruktiv chiziqlar, rang va mato fakturasi, dekorativ bezak detallari va turli taqinchoqlardan tarkib topgan. Bu elementlarning o'zaro mos va hamohangligi estetik jihatdan yaxlit obraz(siyimo)ning yaratilishi va insonning tashqi muhit bilan ko'p qirrali bog'liqligida namoyon bo'ladi.


Surxondaryo ayollari liboslarida an'anaviy dekorativ bezak elementlari sifatida kashtachilik, bo'yin taqinchog'i, belbog', ziraklar, bilak uzuklar, munchoqli bezaklar va moshina (ziy choklar) choklari kiradi.

Kiyimlarning tikilish uslubi sodda bo'lgan. Kiyimlarni bichishda bichiqchi qarichidan foydalanib o'lchagan. Matolarni esa qo'l bilan yirtib qiyqim chiqarmaslikka harakat qilingan. Lozim bo'lganda esa pichoq ishlatilgan. Kiyimlar asosan oldingi va orqa bo'y, ikki yon, yeng hamda ikki yonni yengga qo'litiq ostiga qo'shib tikadigan xishtakdan iborat. Shuningdek, oldingi va orqa bo'y to'g'ri olinganligi uchun yelkasi choksiz bo'ladi. Ayollar kiymida old qismini va yenglarini kashtalar tikib bezatilgan kashtalarning ranglarini va naqishlari rang – barangligi bilan ajralib turgan (1-rasm). Yoqalar ochiq yoqa, yelka yoqa bo'lgan, lekin oldi ochiq kiyimlarda, xususan, yaktak, to'n kabilarda yoqa bo'lmagan. Voha aholisining kiyimlarini yozgi hamda qishki kiyimlarga ajratish mumkin. XIX asrda surxon ayollarning liboslarini bir qismi bo'lgan zargarlik buyumlari bo'yinga va ko'krak taqinchoqlari xilma – xil bo'lgan.

Kiyim-kechakning ajralmas qismi zargarlik buyumlari bo'lib, ular odamlarning tarixi va madaniyatini aks ettiradi, ular mavjudlik va madaniy-tarixiy aloqalarning ramziy modellaridan

biri hisoblanadi. Ushbu taqinchoqlar Umayya mabudasiga borib taqalgan va bunday taqinchoqlar baxt, oman, serfarzandlik belgisi hisoblangan. Gulband taqinchoq'i xalq orasida qizamiq kasalidan asraydi deb hisoblangan. Bu zargarlik buyumlari to'qilishi jihatdan juda murakkab bo'lganligi uchun ham hozirhi kunda bunday bezakli taqinchoqlarni to'qiydigan hunarmandlar kamayib ketgan. Bunga sabab bunday taqinchoqlarni to'qishda sxemasi bo'lmaganligi hamda iplarni sifati ham tasir qilgan. Taqinchoqlarni to'qishda ketma-ketlikda bir ipdan foydalanib to'qilgani uchun ham munchoqlarni sitilishiga moili bo'lgan.

Kashta kostyum elementlari hamda uning texnologiyasi haqida A.D.Grebenkin, C.M.Mahkamova, P.G.Muqminova, O.A. Suxareva, X.X. Kamilova, U.S. Raxmatullayeva, Elmira Gyul va boshqa olimlar tomonidan ko'pgina ilmi ishlar yaratilgan ishida batafsil tahlil etilgani bois ushbu ishda dekorativ bezaklari va taqinchoqlari kostyum jixatlari o'rganildi.



1 - rasm. Surxondaryo liboslarda ishlatilgan ranglar diagrammasi

“a” - Surxondaryo-Qashqadaryo ayollar kostyumida qo'llanilgan asosiy ranglar uyg'unligi.

“b” - Surxondaryo-Qashqadaryo ayollar kostyumida qo'llanilgan naqsh elementlarida, rang uyg'unligi. Katta aylana kostyum matosida qo'llanilgan asos rangi. Kichik aylana kostyumx matosida qo'llanilgan naqshlar rangi.

Surxonadryo liboslarida ranglarni bir-biri bilan uyg'un holda yoki kontras holda ko'rishimiz mumkin.

Qizil-g'alaba, olov, iliqlik, quvonch, qon.

Sariq muqaddaslik, yorqinlik, quyosh va kenglikni anglatadi.

Qora-motam, cheksizlik, mavhumlik, qo'rquv, depressiya, noaniqlik.

Moviy-iymon mustahkamligining rangi.

Oq-poklik, erkinlik, yengillik, baxt va omad ramzi.

Surxondaryo liboslarida ranglar uyg'unlashuvining asosiy bo'lgan rang munosabatlarini o'rnatish imkonini beradi. Diametrning qarama – qarshi uchlarida joylashgan ranglar qo'shimcha yoki kontrast ranglar hisoblanadi, masalan, zarg'aldoq ko'kka, qizil yashilga qo'shimcha va boshqalar. Liboslarda shunday ranglarining bir-biri bilan yon mayon ko'rishimiz mumkin. Bunday ranglarni joylashtirish kashtado'zdan juda katta e'tibor va mahorat talab qiladi

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sodiqova Nafisa. O'zbek milliy kiyimlari. XIX –XX asrlar T.: Sharq 2003 y.150–b
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) y.
3. Эльмира Гюлью. Садынебесные и сады земниые. Москва-2013.
4. Binafsha Nodir. An'anaviy xotin – qizlar libosi. Moziydan Sado jurnali. Toshkent - 2013.
5. U.S.Raxmatullayeva , S.A. Raximqulova. Surxondaryo kostyumida milliy elementlarning o'rni. O'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2021
6. Абдуллаев Т.А., Ҳасанов С.А. Одежда узбеков (XIX-нач. XX вв.)-Т., 1978.
7. С.А.Рахимкулова, У.С.Рахматуллаева. Методика определения деформирования нитевой структуры декоративного элемента // Универсум: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 7(112). УРЛ: [хттпс://7универсум.ком/ру/теч/архиве/итем/15798](https://7универсум.ком/ру/теч/архиве/итем/15798)

INNOVATIVE
ACADEMY